

## MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarni ifodalovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi "Beshariq Imkon Plyus" xususiy korxonasi (keyingi o'rirlarda «Sotuvchi» deb ataladi) nomidan rahbari A.Nishonov birinchi tomon va ikkinchi tomon O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Beshariq tuman maktabgacha ta'lif bo'limi nomidan (kelgusida «Xaridor» deb ataladi) rahbari Sh.A.Baratalieva o'rtalarida quyidagi maqsadlarda tuzildi.

### 1. Shartnoma predmeti

- 1.1.«Sotuvchi» «Xaridor»ga quyidagi mahsulotlarni yetkazib beradi: Oziq -ovqat mahsuloti
- 1.2.Mazkur shartnomaning umumiy qiymati: **150 715 000** (Bir yuz ellik million etti yuz o'n besh ming ) so'm 00 tiyinni tashkil qiladi.
- 1.3. Mahsulotlar 2022 yil noyabr oyiga quyidagi assortimentda yetkazib beriladi:

Mahsulot nomi	O'lchov dirligi	Miqdori	hi	Summasi
<b>Gurunch zaxira (nukus)</b>	kg	14020	10750	150 715 000
<b>Jami</b>				<b>150 715 000</b>

Izoh: Shartnoma muddati bir oydan ortiq bo'lganda assortiment bo'yicha olinayotgan mahsulot turlari va narhlari kelgusi oylar uchun talab va extiyojdan va narx-navolardan kelib chiqqan holda alovida spetsifikatsiya xolatida tuzilib ikkala tomon o'tasida tasdiqlangandan so'ng ushbu shartnomaga ilova qilinadi va shartnomani ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbuni natijasida shartnomani umumiy summasi o'zgargan xolatda qo'shimcha kelishuv orqali shartnomani summasiga o'zgarish kiritiladi.

### 2. Hisob-kitob shartlari.

#### 2.1 Olingan oziq-ovqat mahsulotlari uchun maxsulot spetsifikatsiyasida belgilangan narxda to'lov jadvali bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

2.2 «Xaridor» oldindan 30 % miqdorida 45 214 500 so'm to'lovni amalga oshiradi xamda to'liq xisob-kitobni mahsulot olingandan so'ng shartnoma amal qilish muddatida schyot fakturalarga asosan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Shartnoma bir oydan ortiq muddatga tuzilganda 30% miqdorida oldindan to'lov jadvaliga asosan xar oyda amalga oshirilib boriladi.

2.3 Mahsulotlar uchun narh mahsulot yetkazib berishga da'vegar bo'lgan korxonalarining tijorat takliflaridan xamda xududdagi o'rtacha bozor narhlari tomonidan takdim etilgan narhlardan kelib chiqqan xolda taqdim etilayotgan maxsulotlarni sifatini e'tiborga olib o'zaro tanlov asosida belgilanadi. Oziq-ovqat maxsulotlari uchun narx bozor narxlaridan oshmagan xolda sifat darajasiga qarab yetkazib beruvchi va istemolchi o'tasida o'zaro kelishilib belgilanadi. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftish ishlari natijasida yetkazib berilgan oziq- ovqat maxsulotlari belgilangan narhlar yuqori deb topilsa, ushbu farq «Sotuvchi» zimmasidan qoplanadi.

### 3. Mahsulot yetkazib berish:

3.1 «Sotuvchi» shartnomada belgilangan mahsulotlarni kelishilgan taqsimotnomaga asosan byudjetdan mablag' oluvchi muassasa manzilgohlariga belgilangan muddatlarda yani 2022 yil noyabr oyida yetkazib beradi va transport xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

### 4. Tomonlar xuquqi va majburiyatları:

4.1 «Sotuvchi» mahsulotni sifatini tasdiklovchi xujjat (muvofiqlik sertifikati va sanitariya-gigiena sertifikati, go'sht mahsulotlari uchun veterinariya bo'limi xulosasi va xokazolar) hamda mahsulotdan namuna takdim etadi va aynan shu namunadagi mahsulotni joylarga yetkazib berilishiga kafolat beradi va xujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirishni o'z zimmasiga oladi.

4.2. «Sotuvchi» «Xaridor» tomonidan ishonch bildirilgan, muassasa rahbari va bosh hisobchi tomonidan imzolangan, hamda yumaloq muhr bosilgan ishonch qog'ozni ko'rsatgan vakilga mahsulot beradi. Agar «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ning ishonch qogozida ko'rsatilmagan mahsulotlarni yoki mahsulotlarni ishonch qog'ozida belgilangan mikdoridan ortiq bergen xollarda bu mahsulotlar uchun «Xaridor» tomonidan xaq to'lanmaydi. Shuningdek, «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ga sifatsiz yoki sertifikatsiz maxsulotlar yetkazib berilsa bu mahsulotlar «Sotuvchi»ga qaytarib beriladi yoki bu mahsulotlar uchun xaq to'lanmaydi.

4.3.«Sotuvchi» yetkazib bergen mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarini rasmiylashtirishi shart To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va

kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi. Ushbu holatlar tegishli dalolatnomalar orqali rasmiylashtiriladi.

4.4. «Xaridor» «Sotuvchi» tomonidan yuborilgan mahsulotni shartnoma shartlari va spetsifikatsiyaga to'g'ri kelishini tekshirib qabul qilib olgandan so'ng olingan mahsulot uchun shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishi shart.

#### 5. Tomonlar javobgarligi

5.1 Agar "Yetkazib beruvchi" tomonidan "Sotib oluvchi" ga sifatsiz, yoki saqlash muddati o'tib ketgan mahsulotlarni yetkazib bergan xolda "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi" dan bunday maxsulotlarning umumiy qiymatidan 20% jarima qo'llab, qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

5.2 Agar "Yetkazib beruvchi" tomonidan "Sotib oluvchi" ga belgilangan maxsulotlar belgilangan muddatda yetkazib berilmasa, "Yetkazib beruvchi" muddati o'tgan xar bir kun uchun kechiktirilgan maxsulot qiymatining 0.5% miqdorida lekin kechiktirilgan maxsulot qiymatining 50% dan oshmagan xolda "Sotib oluvchiga penya to'laydi.

5.3 Agar "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi" dan olingan maxsulot pulini belgilangan muddatda to'lab bermasa, muddati o'tgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0.4% miqdorda, lekin kechiktirilgan to'loving 50% oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.4 Jarimalar to'lanishi «Yetkazib beruvchi» ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6.1 Shartnomada ko'rsatilgan shartlar tomonlarga bog'liq bo'limgan favqulodda hollarda buzilsa (ya'ni suv toshqini, yong'in, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar va hukumatning maxsus qarorlarini bajarish bilan bog'liq holatlarda) tomonlar javobgar bo'lmaydi.

#### 7. Shartnoma muddati

7.1 Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 30-noyabrgacha Ma'lum sabablarga ko'ra olingan maxsulot uchun o'z vaqtida to'lovi amalga oshirish imkonini bo'limganda tomonlarni o'zaro kelishuviga asosan to'lov uchun qo'shimcha vaqt belgilanadi

#### 7.2 Shartnoma quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

a) tomonlar o'zaro yozma kelishuviga asosan; b) «Sotuvchi» tomonidan yetkazib berilgan mahsulotni sifatsizligi to'g'risida «Xaridor» tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilib tegishli xulosa olinganda; v) «Sotuvchi» tomonidan mazkur shartnomaning 4.1, 4.2, 4.3. bandlari bajarilmaganda; g) byudjetdan mablag' oluvchini xarajatlar smetasiga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilishi natijasida shartnoma summasi kamaytilishi lozim bo'lgani holda «Sotuvchi» ushbuga rozilik bermagan taqdirda;

d) narxlar o'zgarishi natijasida maxsulotlarning narhi ma'lum sanadan o'zgarishi (kamayishi yoki ko'payishi) lozim bo'lgani holda tomonlar o'zaro kelisha olmagan taqdirda;

Izoh: b, v, g, d punktlari bo'yicha shartnomalar «Xaridor» tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin. Shartnomaning bekor qilingani to'g'risida «Xaridor» «Sotuvchi» ga yozma ravishda, asoslarini keltirgan holda xat bilan ma'lum qiladi.

#### 8 Ko'shimcha shartlar

8.1 Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar o'zaro xal qilinadi. O'zaro xal qilinmagan takdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan iqtisodiy sudlari orqali xal qilinadi.

8.2 «Ta'minotchi» o'z faoliyatini yurgizish uchun lozim bo'lgan xujjatlardan (litsenziya, guvohnoma, sertifikat) «Iste'molchiga» taqdim etadi.

8.3 Shartnomaning bajarilishi uchun taa'luqli xujjatlarni xaqqoniyligi va to'g'riliqi uchun ushbu xujjatlarni taqdim etayotgan tomonlar ma'sul va javobgardirlar.

8.4 Ushbu shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangandan so'ng belgilangan tartibda va muddatda tegishli g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.

8.5 Shartnomaga barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va tomonlarning imzo va muhrlari bilan tasdiqlanib tegishli g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga kiritiladi.

#### 8.6. Korruptsiyaga qarshi shartlar

Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirklik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa

Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki

vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

Tomonda ushbu Sharhnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalarning normalari buzilganligi faktining rad etib bo‘lmaydigan dalillari mavjud bo‘lgan holda esa amaldagi qonun hujjalarda belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi

**Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:**

«Ijrochi»

“Beshariq Imkon Plyus” x/k

(etkazib beruvchining (pudratchining) nomi)

Manzil: Beshariq tumani Nabi qishlog‘i

Tel./faks: 94-447-21-75

h/v: 20208000200512667001

Bank nomi Aloqa bank Beshariq filiali

MFO 00401 STIR 302280410

IFUT \_\_\_\_\_

«Buyurtmachi»

Beshariq tumani maktabgacha ta‘lim  
bo‘limi

(buyurtmachi nomi)

Manzil: Beshariq shaxri Sirdaryo ko‘chasi

Tel./faks 6121627

shg\*h\*10002286030215709110025100  
1

Tashkilotning STIRi 305153351

IFUT 84112

G‘aznachilik bo‘linmasining nomi Beshariq  
tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi

YaG‘H: 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent  
shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa  
markazi (HKKM)

MFO:00014 G‘aznachilik bo‘linmasining  
STIRi 201122919

Buyurtmachi rahbari \_\_\_\_\_  
Sh.A.Baratalieva

A.Nishonov

(imzo) (F.I.O.)

(lavozimi)

(imzo) (F.I.O.)



	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	SHOIRAXON BARATALIYEVA ALIMJANOVNA
	Imzolangan sana	18.11.2022 17:33
	Hujjat kodi	<b>KT2767145016</b>
	Hulosa kodi	<b>IK4887841517</b>

## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

IK4887841517

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Gurunch etkazdirib berish bo'yicha**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman maktabgacha ta'lif bo'limi tomonidan 16.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Beshariq tumani  
yuridik markazi  
markaz rahbari:



**A.G.NURMATOV**

18.11.2022

**176763 лот юзасидан шаклланган дастлабки  
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон  
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичida иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътиrozлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

19.11.2022 09:58

Комиссия раиси:

BARATALIYEVA SHOIRAXON ALIMJANOVNA